

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

SHAVKAT RAHMON SHE‘RLARIDA QO‘LLANGAN EPITETLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Yunusova Jamila Boltaboyevna
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti 3-kurs doktoranti

Jamila2020_yunusova@mail.ru. Tel: 97 776-93-47

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shavkat Rahmon she‘rlarida qo‘llangan epitetslarning lingvopoetik xususiyatlari o‘rganilgan. Hususan, shoir she‘rlarida epitetdan lirik nutqning aniq bo‘lishida, ekspressivlikni ifodalash hamda asarning badiiy qimmatini oshirish, tasvir tiniqligini ta‘minlashda muhim poetik vazifa bajargani tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar: Epitet, poetika, sifatlash, metafora, lingvopoetika, leksema, badiiy matn.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭПИТЕТОВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В СТИХАХ ШАВКАТА РАХМАНА

Аннотация: в этой статье исследуются лингвопоэтические особенности эпитетов, используемых в стихах Шавката Рахмана. В частности, было исследовано, что эпитет в стихах поэта выполняет важную поэтическую функцию в точности лирической речи, выражении выразительности и повышении художественной ценности произведения, обеспечении ясности образа.

Ключевые слова: эпитет, поэтика, метафора, лингвопоэтика, лексема, художественный текст.

LINGUOPOETIC FEATURES OF EPITHETS USED IN SHAVKAT RAHMAN'S POEMS

Annotation: this article explores the linguopoetic properties of attached epithets in Shavkat Rahman's poems. Hususan has been studied to have an important poetic function in expressing expressiveness as well as enhancing the artistic value of the work, ensuring image clarity, in the clarity of lyrical discourse from the epithet in the poet's poems.

Key words: epithet, poetics, adjective, metaphor, linguopoetics, lexeme, artistic text.

KIRISH

Badiiy asar tili ko‘p qatlamli bo‘lib, uning asosiy sirlaridan biri shundaki, u barcha qatlamlari bilan bir vaqtda o‘quvchi ong-u shuuriga ta‘sir qiladi, biz bir vaqtning o‘zida she‘riy

nutqning mantiqiy ma‘nosini, sehrini idrok qilsak, uning ritmlari oqali turli o‘zgaruvchan templarni his qilamiz. O‘quvchiga shunday estetik zavqni yuqtira olishi bilan she‘riyat o‘z qimmatini belgilaydi.

Tasvirlangan narsani individuallashtirish vazifasi badiiy asar uchun zarur bo‘lib, shoir yoki yozuvchidan so‘zning keng ma‘nosida tasviriy ma’noga ega bo‘lgan til vositalariga, ayniqsa, epitetga murojaat qilishni talab qiladi. “Epitet. Grekcha – epitheton so‘zidan olingan bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, izohlovchi degan ma‘noni beradi. Ammo u boshqa doimiy aniqlovchilardan o‘zining ekspressivligi, ko‘chma ma’noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Epitet – poetik aniqlovchi. U narsa yoki hodisaning biror tomoni, biror xususiyati yoki belgisini alohida ta’riflab ko‘rsatish, alohida baholash uchun predmet, voqea nomini bildiruvchi so‘z oldidan qo‘shimcha ravishda keltiriladigan so‘zdir.” [4,27] Epitetning gapdagi asosiy vazifasi predmetga poetik aniqlik, rang-baranglik berish, shuningdek, belgini oddiygina ko‘rsatish bilan chegaralanmay, uni yanada konkretlashtirib ifodalash hamda unga emotsional-ekspressiv baho berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Epitetlar til hodisasi hisoblangan aniqlovchi (sifatlovchi) bilan mushtarak bir tushuncha emas. Avvalo, epitetlar atributiv birikmalardan badiiy nutqqa xos ko‘chma ma’noda (metaforali) qo‘llanishi, obrazlilik, emotsional-ekspressivlikning bo‘lishi va predmetga subyektiv munosabatning ifodalanishi bilan farqlanadi. [3,18] Epitet badiiy tilning obrazli tasvirlash vositalaridan biri bo‘lib, u badiiy nutqning rang-barang bo‘lishini ta’minlaydi. O‘zbek tilshunosligida epitetlar borasida muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, D.Xo‘jayeva “O‘zbek tilida epitetlar” mavzusida tadqiqot olib brogan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ijodkorlar badiiy tili, uslubini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlar til fondida barqaror bo‘lgan tayyor jumalardan foydalanishdan ko‘ra o‘zlarining badiiy-estetik idealiga mos keladigan yangi birikuvlarni yaratishni afzal ko‘radilar. Shavkat Rahmon she‘rlarida ko‘p qo‘llangan badiiy tasvirning leksik vositasi epitet hisoblanadi. Shoir ijodidagi epitetlarni o‘rganish uning badiiy-tasviriy vosita sifatida poetik nutqning shakllanishidagi o‘rni, shuningdek, ijodkorning so‘z qo‘llash san‘atidagi o‘ziga xos yo‘lini aniqlashga imkon beradi. Shavkat Rahmon ijodini kuzatar ekanmiz, shoir she‘rlarida epitetdan lirik nutqning aniq bo‘lishida, ekspressivlikni ifodalash hamda asarning badiiy qimmatini oshirish, tasvir tiniqligini ta’minlash va shoir ijodida she‘rdan she‘rga ko‘chib o‘tuvchi obrazlarning silsilaviy mazmunini saqlashda, shoirning sevimli faol qo‘llanuvchi epitetlari mavjud bo‘lib, ulardan turli o‘rinlarda turli, yangi ma‘no qirralari bilan ishlatilib asarning jozibadorligini ta’minlashda foydalanganiga guvoh bo‘ldik.

Hususan, shoir tomonidan muayyan maqsad bilan qo‘llangan epitetlar borki, ulardagi go‘zal badiiy ifodadan ma‘no noziklari yaqqol sezilib turadi.

*Nur to‘kilgan sayhonda bo‘ydoq
shamol bilan o‘ynar giyohlar.*

Shoirning ziyrak kuzatuvchanligi va tilimizning imkoniyatlarni chuqur anglagan holda o‘zaro bog‘lanishi imkonsiz bo‘lgan so‘zlarni shunday mazmuniy qurshovga olib kiradiki, bunda so‘zlar o‘zaro bog‘lanib badiiy niyat ro‘yobi uchun ishlaydi, shoirning mahorati har ikki so‘zdagi o‘xshash harakat-xususiyatni topa olganida. Natijada o‘qishimiz bilan shoirni ta’sirlantirgan tasvir tassurotiga oshufta bo‘lamiz. Ko‘z oldimizga taram-taram bo‘lib yog‘ilgan quyosh nuri, mayin shamol harakati yo‘sinida harakatlanayotgan giyohlar raqsi gavgavdanadi, bunday tasvirdan huzurlanmaslikning imkoni yo‘q. Badiiy nutqda so‘zlarni o‘zaro bog‘lanishidagi chegaralar nisbatan erkinlashadi, chunki so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash imkoniyati keng. Parchadagi *bo‘ydoq* so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llanib, shamolning badiiy sifatlovchisi bo‘lib kelgan. *Bo‘ydoq* leksemasida erkinlik tushunchasi ham bor, tog‘ bag‘ridagi esish yo‘nalishini tez-tez o‘zgartirib turuvchi shamol tasviri uchun bu mos ifoda bo‘lib xizmat qilgan.

Shavkat Rahmon she’riyatida tabiat tasviri berilganda alohida o‘xshatishlar, takrorlanmas epitetlar qo‘llanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Oq cho‘qqilar,

shavaqi soylar

yaxshilikka ko‘milgan mohtob. (“O‘shkent lahzasi”)

She’rda tasvirlangan vodiy manzarasini alohida badiiy tarzda ifodalash lirik qahramonning kayfiyati, sezimlarini ham aks ettiradi. Parchada *oq, shavaqi, yaxshilikka ko‘milgan* epitetlari ishlatilgan. N.Jumatova “Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar” nomzodlik tadqiqot ishida oq, qora, qizil ranglar borliqni ramziylashtirishda asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi, darhaqiqat, bu uch rang, eng ta’sirchan, eng mahsuldor ranglardir. [2,26]. Bu o‘rinda “oq” leksemasi cho‘qqining qor bilan qoplanganiga ko‘ra oq rangdagi cho‘qqilar sifatida oq rangni, “yaxshilikka ko‘milgan” epiteti bilan aloqalantirilsa yaxshilik, ezgulikning cho‘qqisi ma’nolariga ishora qilib belgi-hususiyatni ifodalab kelmoqda. *Shavaqi* epiteti ishlatilishida shoirning sinonimik qatordan mosini saralab qo‘llash mahorati namoyon bo‘ladi, chunki *shavaqi* so‘zi taqlid so‘zdan yasalgan bo‘lib, unda taqlid so‘zlarga xos muayyan narsa-hodisani tasvirlashda uzundan-uzoq tavsiflardan ko‘ra bu narsa-hodisalarga xos tovushlarni eslatish, keltirish ularni obrazlarini tezroq tasavvur qilish imkonini beradigan xususiyat saqlanib qolgan va u *shavaqi soylar* epitetli birikmasi muvafaqqiyatli chiqishida muhim poetik vazifa bajarib go‘zal soy tasvirini tasvirlash bilan birga undagi suvlarning ovozi ham kitobxonga his qildirish imkoniyatini yaratadi. *Yaxshilikka ko‘milgan mohtob* epitetli birikmasi – bu umumlashtiruvchi harakterga ega bo‘lib, *mohtob* – *yoritib turuvchi oy* [6,217] ma’nosini anglatadi. Yuqoridan vodiy kuzatilganda *soy –oyday, quyoshda qorlari yaltiragan cho‘qqi oydan nur taratayotganday* ko‘rinadi. Shoir epitetlardan foydalanib vodiyni yuqoridan ko‘rinadigan go‘zal peyzajini tasvirlab bergan. She’rda tasvirlangan vodiy manzarasini alohida badiiy tarzda ifodalash lirik qahramonning kayfiyati, sezimlarini ham aks ettiradi..

Shoir ijodida shunday epitetlar uchraydiki, ular shaxsga xos hususiyatlar narsa-hodisalarga ko‘chirish orqali hosil qilinganini va bu tarzda yasalgan epitetlarda kuchli

ekspressiya, ohorlilik sezilib turishini, ijodkorning tasavvur va tafakkur dunyosi bo‘y ko‘rsatishini sezish mumkin.

Kirib qolar boqqa adashib,

telvakezik, yalang‘och shamol. (“Yoz tuni”)

Adabiy til me‘yorlariga ko‘ra, *telvakezik, yalang‘och* sifatlovchilari shaxsga nisbatan ishlatiladi. *Telvakezik* leksemasi shevaga oid so‘zlar bo‘lib, bu so‘z maqsadsiz ko‘p aylanib yuraveradigan kimsalarga qo‘llanadi. Shoir shamolning esish harakatiga ko‘ra *telvakeziklikka* o‘hshatgan bo‘lsa, shamoldan so‘ng yuzaga keltiradigan holatiga ko‘ra *yalang‘och* sifatlovchisini ishlatishni ma‘qul ko‘rgan. Ijodkorning shaxsga xos xususiyatlarni shamolga ko‘chirishdagi umumiy o‘xshashlikni topa olishi orginal epitet hosil bo‘lishida muhim vazifa bajargan. Yoki mevalari g‘arq pishgan, yig‘ib terilmagan bog‘ga erta kuz faslining kelish holati juda mahorat bilan tasvirlangan.

Tungi yelga siynasin ochib,

*Dam olardi **homilador** bog‘. (“Yoz tuni”)*

Shoir tabiatdagi kuzatuvchanlik, ziyraklik hamma ham ilg‘ayvermaydigan narsa hodisalar o‘rtasidagi nozik o‘xshashlikni topa olishida ko‘rinadi. *Homilador* epiteti ham shunday shoirning ziyrak nuqtadonligini ko‘rsatuvchi, kitobxonni hayratlantiruvchi poetik vosita sifatida gavdalangan. Bu kabi orginal epitetlar uzoq vaqt kitobxon hotirasida saqlanadi.

Ba‘zan esa narsa-buumlarga xos jarayonlar tuyg‘ularga ko‘chirish orqali metaforik epitetlar hosil qilingan, ularda betakror ekspressivlik yaqqol seziladi.

Nafas olmay o‘taman har gal,

*uf-f, naqadar **o‘tkir** anqiydi*

***irib ketgan** orzu – xayollar,*

***chirib yotgan** tuyg‘ular hidi. (“Xonadon”)*

Shoir she‘rlarida epitetlarni ketma-ket qo‘llab, predmet va voqea hodisalar xususiyatini atroflicha yoritishga erishgan. Parchadagi “*otmoq*” fe‘lini *yuqtirish, ta’sir qilish*, ma’nolarida ishlatib, bu fe‘lga yangi hosila ma’no qo‘shgan.

Lazzat bor har qanday og‘riqda,

Kechalar og‘riqdan ingrab yotaman

*Va o‘sha og‘riqni **beg‘am, bo‘g‘riqqan***

***Og‘riqsiz** yuzlarga otaman... (“Ko‘zingizni oching, qo‘rqmang...”)*

Shuni ham ta’kidlash kerakki, shoir she‘rlarida bir necha epitet so‘zlar uyushib bir jumlaning o‘zida ketma-ket qo‘llanganda, ularning har birini alohida ajratib ko‘rsatish, ifodadagi ekspressivlikni yanada oshirish maqsadida bu so‘zlarning oldidan *bir* tipidagi sifatlovchi-kuchaytiruvchi so‘z keltiriladi:

*Bir **yomon**,*

*bir **uzun**,*

*bir **o‘tkir** yig‘i,*

*hali **er ko‘magan qizlar** yig‘isi.*

Shoir badiiy nutqining o‘ziga xos tomonlaridan yana biri she’r tuzilishida. “Qulog‘imda qolgan yig‘i” deb nomlangan ushbu she’rida dastlab, uyushiq sifatlovchilar *yomon, uzun, o‘tkir* so‘ngra ularga umumlashtiruvchi so‘z bo‘lib kelgan *hali er ko‘magan qizlar* so‘z birikmasi epitet bo‘lib qo‘llangani ular bog‘langan leksemaning matndagi ma’no qirrasini konkretlashtirishga, to‘liqroq ifodalanishiga xizmat qilgan.

Shavkat Rahmon ijodida shunday she‘rlar borki, ularda epitetlar o‘zi bog‘langan so‘z bilan ma’nolari bir-biriga o‘zaro zid bo‘lgan so‘zlarga bog‘lanib epitetli birikma hosil qilgan holatlar bor. “Bunda birikma juda yuqori ekspressivlik va emotsionallik kasb etadi, kuchli emfatik intonatsiyaga ega bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda bu oksumoron nomi bilan yuritiladi.” [1,43]

*Shunda buyuk dengiz chayqalib ketdi,
maydonlarni bosdi bir yuvosh zulmat.*

*Shoirilar uyg‘ota olmagan elni
uyg‘otib yubordi malomat, tuxmat.* (“Tuxmat”)

Parchadagi *yuvosh zulmat* birikmasida ma’no qirralariga ko‘ra zidlik kuzatiladi, birida ijobiylik, birida salbiy bo‘yoqdorlik bildirgan holda, *yuvosh* so‘zi unga sifatlovchi qilib qo‘llangan. Xalqning murakkab ruhiy holatiga emfatik intonatsiya berilgan, epitetli birikma kuchli emotsoinallikni ifodalovchi poetik vosita bo‘lib xizmat qilgan.

*Eng baxtiyor lahzalarda ham
uning sokin isyoni so‘nmas.*

*Tug‘ilmagan shunchaki aslo,
u hech qachon shunchaki o‘lmas.* (“Avtoportret”)

Avtoportret she’ridagi *sokin isyoni* epitetli birikmasi ma’no qirralariga ko‘ra zidlik hosil qiladi. *Isyon* so‘zida harakat, harakat-holatning yuqori tempda bajarilgani kuzatilsa, *sokin* leksemasida aksi. Ayni jarayonda *sokin* so‘zi unga aniqlovchi bo‘lib qo‘llangan va lirik qahramonning kuchli hissiy holatiga emfatik intonatsiya berilgan, natijada birikma kuchli emotsionallikni ifodalovchi vositaga aylangan. Bu kabi noodatiy bog‘lanishlar kitobxon diqqatini tortadi, shoirning badiiy niyatini chuqurroq anglashga undaydi. Lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda ham yuqoridagi kabi badiiy usuldan foydalanilgan.

*Ammo to‘larmikan ko‘ngil shu bilan,
Shu bilan ketarmi xotirdan g‘ashlik,
Yuraklar kularmi,
Qularmi butkul*

Shu bilan yuksakda o‘sgan pastkashlik? (“Sulaymon tog‘da...”)

Pastkashlik insoniy sifatlar, hislatlar ichida quyi pog‘onada turuvchi fazilatlardan biri, unga epitet qilib *yuksakda o‘sgan* sifatdash oboroti qo‘llanishi ekspressivlikni va yuqori darajadagi emotsionallikni ta’minlovchi lingvopoetik vosita bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, matnning ohang butunligini ta’minlayotgan *kularmi, qularmi* so‘zlari bilan aloqalantirilsa, poetik mazmun qamrovi yanada kengayadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ba’zan epitetli birikmalar tarkibidagi so‘zlar “mazmunining konkretlikdan abstraktlik tomon siljishi, undagi moddiy tushunchaning yo‘qolishi, ya’ni nomoddiylashuvi natijasida yuzaga keladigan ekspressiv-emotsionallik ko‘pincha individual xarakterda bo‘ladi”.[1,43] Chunki quyidagi sifatlovchili birikmalar turli assotsatsiyalar hosil qiladi. O‘quvchi bilim, fikrlash darajasiga ko‘ra har xil tushunadi, tushunish darajasiga ko‘ra har bir o‘quvchi o‘zicha to‘ldiradi, tasavvur qilgan holda qabul qiladi.

Olam go‘zal ekan,

shunda ilk bora

*eshitdim qalbmning **teran yig‘isin**.*(“Yo‘lovchi”)

“Eski she’r” deb nomlanuvchi she’rida epitetli birikmalar yaxlit bir tushunchaning poetik obrazi sifatida gavdalanadi:

Ey elim,

qachondir bir gala bedil

ko‘ksingdan dilingni sug‘urgan mahal

nega **shol yuzingni** burding teskari,

nega tirik qolding ichmasdan zahar?! (“Eski she’r” 416)

Parchadagi *shol yuz* birikmasi *“loqayd”* tushunchasi ifodasidir. Lekin loqayd so‘ziga nisbatan *shol yuz* birikmasi mazmunan boy va poetik jarangga ega. Shol yuz faqat loqaydlik tushunchasining badiiy ifodasi bo‘lmay, balki, shu loqaydlik bilan bog‘liq yana boshqa abstrakt tushunchalarga ham ishora bordek.

Har bir ijodkorning o‘z sevimli epitetlari bo‘ladi, ular shoirning individual uslubining shakllanishida ma’lum darajada xizmat qiladi. Shavkat Rahmon ijodida ham she’rdan she’rga ko‘chib o‘tuvchi faol epitetlar bor, ulardan biri “keksa” leksemasi, u shunchaki o‘tmaydi, she’rdan she’rga semik jihatdan boyib boradi, shoir kitobxonni bu yangi ifodalarga tayyorlab boradi.

Yoz tuni. Bog‘ shira uyquda.

Keksa chinor suradi xayol. 76

Chinor ko‘p yillik daraxt, bu xususiyatiga ko‘ra uni uzoq umr ko‘rgan, dunyoning ko‘p ishlariga guvoh dono mo‘ysafidga o‘hshatadi.

Bobochinor sergak vaysardi

kar, vaysaqi sherigi bilan.

Allaqaydan kelar sudralib,

kuzak – xuddi uch sariq ilon.

Shoir inson va tabiatni doimo uyg‘un holatda tasavvur qiladi, she’rlarida ham bu o‘zining poetik aksini topgan. Chinorga **bobo** so‘zining qo‘shilishi, unga nisbatan **kar, vaysaqi** epitetini ishlatish mantiqsizday tuyuladi, lekin badiiy nutq bunga imkon beradi. She’rda keksalikka xos belgilar chinor so‘ziga mahorat bilan ko‘chirilganki, kitobxon sarg‘aygan barglari ovoz chiqarib bir-bir tushayotgan chinorlarni shoirday tasavvur qilishi mushkul bo‘lmaydi, bu kabi hali ohori ketmagan individual epitetlar ekspressivligi, yangiligi bilan ajralib turadi. O‘quvchida tezda

qiziqish uyg‘otadi. Masalan, shoir “Yoz ravishi” she‘rida *keksa* so‘zining sinonimi *qari leksemasini* tog‘ga nisbatan qo‘llab go‘zal badiiy ifoda yaratadi.

Shu‘lalanib, sharqirab yotar

ko‘k suvlarda oy siniqlari.

Yetib kelar muzday shabada –

qari tog‘ning xo‘rsiniqlari. (“Yoz ravishi”)

Shavkar Rahmon eng faol qo‘llagan epitetlardan yana biri “sodda” sifati bilan bog‘liq birliklardir. Sodda sifatidan ba‘zan asl ma‘nosida foydalansa, ba‘zan ko‘chma ma‘noda ishlatadi. Ushbu epitet xaloyiq va qishloqlar so‘zi bilan kelib shoirning subektiv munosabatini ifodalashga xizmat qilayotganligi bilan harakterlanadi.

Bu sodda xaloyiq muncha aldanar,

pixillab kuladi endi jallodlar. (“Uyqu”)

“Uyqu” she‘rida xaloyiq leksemasiga nisbatan qo‘llangan sodda epitetida “go‘l”, “laqma” semalari reallashgan.

Katta yo‘l bo‘yida

go‘yo o‘zlarin

olis bir sayohat, safarga chog‘lab,

pista, qurt sotuvchi chollar singari

o‘ylanib o‘tirar sodda qishloqlar.

Katta yo‘l chetidagi qishloqlar sodda epiteti, pista, qurt sotuvchi chollar qiyosi vositasida tasvirlangan. Sifatlash va o‘xshatish konstruksiyasi orqali qishloqlarlarning qanday makon ekanligi, u yerda yashovchilarning hayot tarzi, orzu –umidlari qanday ekanligini tasvirlab beradi. Huddiki, kitobxon nazdida bu sodda, pista qurt sotuvchi chollar qishloqlar olis bir sayohatga chog‘langanday tasavvur uyg‘otadi. Ushbu holat qishloqlarga tavsifli sifatlash bo‘lib kelayotgani ayni paytda qiyos etilayotgan pista, qurt sotuvchi chollar – sodda qishloqlar obrazida aniq namoyon bo‘ladi. Bu badiiy usul natijasida soddalik qishloqlarga ham, chollarga ham tegishlidek tuyuladi.

Demak, Shavkat Rahmon she‘rlarida aniqlik, ifodalilik, ta’sirchanlikni ta’minlash maqsadida epitetning turli xil ko‘rinishlariga murojaat etgan. Bu bevosita shoir she‘rlarining o‘zgacha lingvopoetik manzaraga ega bo‘lishida keng imkoniyat yaratgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. -Тошкент: Фан, 1981. –43б.
2. Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Филол. фанлар. номзоди....дис. автореф. –Тошкент: ТАИ. 2000.-26б.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 15-18.
4. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари – Тошкент: Фан, 1977. -27 б.
5. Раҳмонов Ш. Сайланма. – Тошкен: Шарқ, 1997.
6. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Uchinchi jild. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2022. –